

TTPU ga Pitssburg Davlat Universiteti vakillari tashrif buyurishdi.

AQSHning Pitssburg Davlat Universiteti Biznes Koleji (Kelce College of Business) dekani, professor Biyenvendido Kortes (Bienvenido Cortes) va Peydj Kortes (Paige Cortes) Toshkent shahridagi Turin Politeknika universitetiga tashrif buyurdi.


Tashrif doirasida Universitetlar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari xususan, TTPU va Pitssburg Davlat Universiteti o'rtasida "2+2+1" dasturi asosida yangi "Menejment" ta'lim yo'nalishini tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Kelishuvga ko'ra, Pitssburg Davlat Universiteti Biznes koleji tomonidan o'quv reja, fan dasturlari hamda elektron kitoblar bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

"Menejment" ta'lim yo'nalishiga qabul qilingan talabalarda 2 yil TTPU da ta'lim olgandan so'ng, o'qishini keyingi 2 yilini Pitssburg Davlat Universitetida davom ettirishi imkonni bo'lib, AQSH universiteti tomonidan bakalavr diplomi beriladi. Shuningdek, bakalavriatni muvafaqqiyatli tamomlagan talabalar 1 yillik MBA magistratura bosqichiga qabul qilinishi rejalashtirilgan. O'qishni muvafaqqiyatli tamomlagan talabalarga AQSHda 3 yil davomida amaliyot qilish imkoniyati ham taklif qilinadi.

Hamkorlik doirasida kelgusida, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligining (USAID HELIX) Oliy ta'limda innovatsiyalar, tajriba almashinuv hamda boshqaruv dasturi doirasida loyiha shakllantirish va grantga topshirish rejalashtirildi.



WWW.POLITO.UZ




WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ